



Maktab va Oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning muloqatchanlikni rivojlantirishning psixologik omillari

Niyazmetova Shoira Maqsudbekovna

Xorazm viloyati urganch shahar 30-sonli

IDUMning amaliyotchi psixologi

Annotasiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshdagi bolalar, oliy ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan talabalarda muloqatchanlik qobiliyati va uning shakllanishi muammosi, uning namoyon bo'lishi va unga to'siq bo'luvchi omillar haqida to'xtalib o'tilgan, hamda kichik maktab yoshidagi bolalarda muloqatchanlikni o'stirishning psixologik omillari yoritilgan.

Kalit so'zlar, muloqat, shaxs, kishi ruhiyati, insonlar psixologiyasi, idrok, tafakkur, xulqatvor qobiliyat, muloqot, layoqat, kommunikatsiya, nutq, hissiy-emotsional, xulqatvor, tassavvur, bolalik davr, O'quvchilar kattalar bilan bo'lgan muloqotda hamma narsani o'rganadi.

Muloqot — odamlar o'rtasidagi birgalikdagi faoliyat natijalaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p tarmoqli jarayonidir. Muloqot birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilarning o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Psixologik adabiyotlarda muloqat tushunchasiga 2 xil tarif beriladi: **1.** Muloqot — hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqqoslangan aloqa o'ratish va uning rivojlantirish jarayoni; Muloqot — belgilar tizimi orqali subyektlarning o'zaro ta'sirlashuvi. Muloqot talablar esa, nutqning rivojlanishiga, tinglash va fikrlash qobiliyatlarining shakllanishiga olib keladi. O'quvchilar aytilayotgan har bir so'zning ma'nolarini anglay boradi. Shuningdek, maktab yoshdagi bolalarda kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanishi faqatgina nutq



dalillarini o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki ularga javob berish ko'nikmalarining shakllanishi bilan ham xarakterlanadi. V.I. Kabrin fikricha, bolalarni nafaqat kattalarning savollariga javob berishga, balki savol berishga, faol gapirishga, sheriklar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishga, boshqalar bilan ishonchli, shaxsiy, hissiy axborot almashish olish malakasiga, bahs-munozaralarni xushmuomalalik bilan olib bora olish kabilarga o'rgata borishni shart deb hisoblaydi. Bolalar maktab yoshi arafasida ularning bir-birlariga nisbatan munosabatlarida yangi o'zgarish sodir bo'ladi. Bola ilgari oilasi, tengdoshlari, MTT tarbiyachisi bilan muloqot jarayonida bo'lgan bo'lsa, endi maktab o'qituvchisi, ustozlari bilan muloqot jarayoniga kirishadi. Bolalarda ushbu davrda muloqotga e'tibor qilish, ehtiyoqlik, munosabatlarda muomila jarayoni shakllanadi. Bolalar nutqining rivojlanishida ularning maktabda o'qishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bolamaktabgacha yoshda o'ylamasdan gapiradi, maktabda esa u gaplashayotgan til o'qitiladigan va o'rganiladigan ilm bo'lib qoladi. Grammatikani o'qib o'rganish jarayonida bola nutqining fonetik jihatini to'g'ri bo'lib boradi, nutqning sintaksis tuzilishi takomillashadi. Maktabda o'qitilayotgan hamma fanlarni o'rganish jarayonida o'quvchi nutqining lug'atiboyiydi, so'zlarning mazmuni uning uchun chuqurlashadi va kengayadi. Bolalarning yozma nutqini egallashlari ular nutqining o'sishida muhim bosqich bo'ladi. Bola o'z fikrlarini yozma nutqda bayon qilishga harakat qiladi. O'quvchi o'qituvchining topshirig'iga binoan yozma ishlar bajarayotganda o'zining shu ishga o'z fikrining qanday til bilan bayon qilinganiga qarab baho berilishini oldindan bilib turadi. Zamonaviy pedagogika fanida o'quvchilarda kommunikativ qobiliyatlarining shakllanishi va uni ta'minlovchi ijtimoiy pedagogik omillari borasidagi tadqiqotlar T.A. Ladijenskaya va M.R.L'Povlarning tadqiqotlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Tadqiqotchilarning xulosalariga ko'ra, kommunikativ qobiliyatlarning shakllanishi ta'lim-tarbiya ishlari bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar keyinchalik, tilni o'qitish va nutqni rivojlantirish bilan bog'liq turlinazariyalar, ilmiy maktablarning rivojlanishiga, shu jumladan psixologiya fanidagi og'zaki muloqot konsepsiyasining paydo bo'lishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. V.V. Zankov xulosalariga ko'ra, bunday yo'nalishdagi nazariyalar til va nutqni o'stirish, boladagi nutq faoliyati va uning kommunikativ ko'nikmalari



borasidagi eng mashhur metodologik yondashuvlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Ma'lumki, bolalarning kommunikativ faoliyati ta'lim-tarbiya jarayoni bilan o'zaro uyg'unlanib, u alohida jarayon sifatida shakllanmaydi. Muloqot alashishdagi turli vaziyatlar bolalarda axborotni anglash va uni uzatishdagi shart-sharoitlarni tashkil etish ko'nikmalarini yuzagakeltiradi. Bola faoliyatidagi o'yinlar va turli mashg'ulotlar nutqiy faoliyatning turli xususiyatlarini shakllantirish omili sifatida xizmat qiladi. Demak, ta'lim-tarbiya sohasidagi barcha imkoniyatlar nutqni o'siti-rishning eng samarali shart-sharoitlari hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy sharti sifatida, ularning hissiy-emosional sohasini to'g'ri tarbiyalash eng muhim psixologik qonuniyat deb qabul qilingan. Bunda bola boshqa insonlar bilan hamdard bo'laolishga, bironing g'am-qayg'usini yoki quvonchini hissa qilishga nisbatan tajriba orttiradi. N.I. Bazarskaya fikricha, bu quyidagicha kechadi:

- 1) bola boshqalar bilan umumiy til topadi;
- 2) o'z manfaatini boshqa insonlarning qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtiradi;
- 3) moslashtirish orqali muloqotda muvaffaqiyatga erishadi.

Bundan farqli o'laroq, tadqiqotchi M.N. Skatkinning ta'kidicha, bola-dagi muloqot jarayoni doim ham muvaffaqiyatli kechavermaydi, chunki mazkur muloqot axloqiy me'yorlarga muvofiq tashkil etilishi kerak. Ya'ni bola tomonidan boshqa insonlarning e'tibori jalb qilinishi, muloqot madaniyatiga xos qadriyatlarga amal qilinishi maqsadga muvofiq. Ta'kidlash joizki, bolalardagi kommunikativ qobiliyatlar mazmunini o'zaro ta'sir etish usullari, o'yin faoliyati, nutq faoliyati, kognitiv va emosional soha rivojlanishi qonuniyatlari bilan tahlil etish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Chunki ular doim o'zaro uyg'unlikda rivojlanadi. Tarbiya jarayonida muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bajariladigan rollarning xususiyatlari bilan izohlanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida barcha bolalar ham axborotlarni o'zlashtirishda teng imkoniyatga ega emaslar, chunki, ularning hammasi ham voqelik haqidayetarli bilimlarga ega emas. Bunday sharoitda tarbiyachi insoniyat tajribasini tashuvchi tizim vazifasini bajaradi, bu esa, berilayotgan mashg'ulotlarning bajarilishini yanada tezlashtiradi. Biroq, bu pedagogik



muloqotning, hatto boshlang'ich bosqichda ham bir tomonlama jarayon ekanligini anglatmaydi. Bolalarning atrof-muhit haqidagi bilimlari uzluksiz ravishda muloqot ko'nikmalarini shakllantirib boradi va har bir bosqich ularda o'ziga xos muloqot madaniyati bilan tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. — T.: “Turon- Iqbol” nashriyoti, 2006. — 119 [1,4]
2. Maxsus psixologiya. L.R. Mo'minova, Sh.M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. - 272 b. [2, 3]
3. абрин В. И. Психология коммуникативного развития человека как личности: дис. докт. психол. наук.: -СПб., 1993. – С. 78.
4. Ладыженская Т.А. Система работы по развитию связной устной речи учащихся. – М.: Просвещение, 2007. – С. 66.
5. Бодалев А.А. Восприятие и понимание человека человеком. - М.: Изд-во Моск. ун-та, 2004.
6. Знаков В.В. Понимание в познании и общении / РАН. М.: ИП РАН, 1994. – С.74.